

**SHARQ MUTAFAKKIRLARI ME'ROSIDA MILLIY XUSUSIYATLAR
MUAMMOSINING AKS ETTIRILISHI**

Majidova Muslima Po'latovna

*Namangan Viloyat PMM tabiiy va aniq fanlar metodikasi kafedrasini
o'qituvchisi*

Annotatsiya. Sharq mutafakkirlar falsafasida milliy xususiyatlar muammosining aks ettirilishi bugungi zamонави yoshlarimiz ongi va shurini millatimiz qadriyatlariga sodiq shunningdek ajdodlar me'rosini qadrlashga, avaylab-asrashga o'rganadilar

Kalit so'zlar: mutafakkirlar, falsafa, milliyxususiyatlar, millat, qadriyat, ajdodlar me'ros.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy munosabatlarga doir qarashlarini o'rganar ekanmiz, ularning g'oyalari islom dinida ilgari surilgan insonni baholash mezonlariga asoslanishini ta'kidlab o'tish lozim. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo xalqlari o'zlarining ming yillar mobaynida shakllangan madaniyati, ma'naviy barkamol jamiyat an'analarini bilan jahon xalqlari ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatganini e'tirof etish lozim.

O'rta asr fan va madaniyatiga bebaho hissa qo'shgan ulug' mutafakkir Abu Nasr Forobiy shaxs kamoloti, shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar haqidagi ko'plab fikr-mulohazalarini o'z asarlari orqali ifodalab berishga harakat qilgan

"Ahолиси xushxulqqa eга bo'lмаган мamlакатда hokimiyatga ehtiyoj seziladi", - degan fikri bilan Forobiy jamiyatning demokratlashuvi, inson erki va huquqlarining to'la ta'min etilishi mamlakat ahonisining xulq-atvoriga, ma'naviy-axloqiy kamolotiga bog'liqligini ko'rsatgan . Mutafakkir agar aholi o'z huquq meyorlari doirasida amaldagi qonunlarga bo'y sunib yashashni turmush tarziga

aylantirsa, o'z xatti-harakatini ma'lum qonun-qoidalar yo'naliishiga tushira bilsa, aql-idrok, odob-axloq kategoriylarini hayotning har bir daqiqasida namoyon qilib borsa, jamiyatning ma'naviy qiyofasi barkamol, shaxsning yashash tarzi etuk, erkinliklari esa cheksiz bo'ladi, deya e'tirof etadi.

Forobiy, ayniqsa, ideal shahar aholisining fazilatlariga, bunday shahar boshlig'ining qanday fazilat va xislatlarga ega bo'lishga juda katta e'tibor beradi.

Uning fikricha, har qanday odam shahar boshlig'i bo'la olmaydi, u fazilatli, etuk shaharning boshlig'iga qator talablar qo'ydi: shahar boshlig'i har tomondan etuk va namuna bo'lishi zarur; ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan mukammal, qobiliyatli, barcha sezish organlari, ruhi yaxshi taraqqiy qilgan, fikri sog'lom, so'zga boy va usta bo'lishi lozim.

Forobiy insonning insonligini ifoda etuvchi yagona mezon aql-idrok, ong va tafakkur darajasi bo'lsa, ularning mohiyatini ochib beruvchi, darajasi va ko'lamiga baho beruvchi bosh mezon xatti-harakat, hayotga va atrof-muhitga munosabat, o'zini-o'zi boshqarishdagi ichki qudratdir, deya Forobiy sharqning diyonat, ornomus, sharm-hayo kategoriylariga tayangan, asrlar mobaynida ularni oliy qadriyatga aylantirgan, shu orqali xalqning xulq-atvori o'ziga xosligini ta'minlagan.

Beruniy insonning ma'naviy qiyofasini, xulq-atvorini yaxshilik va imonlilik kabi axloqiy tushunchalar bilan belgilaydi.

Allomaning inson xulq-atvori xususidagi mulohazalari bundan ming yil avval qanchalik dolzarb bo'lsa, bugun ham shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, uning inson mohiyatini aqlida, aql mohiyatini esa harakatda ko'rish mumkinligi xususidagi fikrining hozirgi zamon psixologiyasida ustuvor bo'lgan "psixika faoliyatda namoyon bo'ladi", degan tamoyilga qanchalar hamohangligini sezsa bo'ladi.

Abu Rayhon Beruniy ham barcha davrlarda dolzarb bo'lgan - jamiyat, insonning ijtimoiy hayoti, uning baxti xususidagi masalalarni chetlab o'tmagan.

Beruniy fikriga ko'ra, u yoki bu xalqlarning ko'plab jismoniy xususiyatlari va farqlari ular yashayotgan sharoitlar, geografik muhitdagi tafovutlar bilan bog'liq

Xorazmiylar, so'g'dlar, yunonlar, rimliklar, forslar, hindlar, yahudiylar va

boshqalarning qarashlari, an'analarini tahlil qilar ekan, alloma nihoyatda ob'ektiv bo'lishga intiladi. Bu yuqorida aytilgan fikrni tasdiqlab, uning ilmiy metodiga xos muhim jihatlardan birini ko'rsatadi.

Mutafakkirning qalamiga mansub bo'lgan «Donishnama», «Risolai ishq», «Tib qonunlari» kabi asarlar O'rta Osiyo xalqlarining axloq-odobi, psixologiyasi va tabobat ilmida alohida o'rinni tutgan yirik tadqiqotlar hisoblanadi.

Ibn Sino axloq madaniyati haqida gapirar ekan, axloq — bu insonning o'z-o'zini idora qilish haqidagi fan, uning o'zini kuzatish va o'zgalarning xulq-atvori, odobi va yurish-turishiga bergan baholari natijasi ekanligini ta'kidlagan. Uning fikricha, axloq baxtli bo'lish uchun inson o'z axloqiy odatlari va xatti-harakatlarida qanday bo'lishi lozimligi xususidagi fandir.

Ibn Sino: «Eng yuksak sevgi — bu insoniy sevgi bo'lib, bunday sevgi kishini sahovatli qiladi, uni oq ko'ngil va jozibali kishiga aylantiradi» deb ta'kidlaydi. Mutafakkirning talqin etishicha, sevgi inson zimmasiga juda katta ahloqiy va huquqiy mas'uliyat yuklaydi. U inson baxtining negizi deganda, oshiqlik emas, balki oshiqa ma'shuqlikni tushunadi. Oshiqa ma'shuqlik bilan turmush qurish oila mustahkamligining asosi sifatida ta'kidlanadi.

Allomaning axloq-odob, poklik va salomatlik to'g'risidagi qarashlarida juda katta ibratli fikrlar bor.

Abu Ali ibn Sino to'g'ri so'zlash va to'g'ri ishslash, halollik, insofli va adolatli bo'lish, xushmuomala va shirinsuxanlikni odat qilish, nafsga berilmaslik, fozillar suhbatidan bahramand bo'lish, kattalarning izzatini joyiga qo'yish, kichiklarga shafqatlilik, samimiyl do'stlik, muhtojlarga yordam berish va in'om-ehson qilishni unutmaslik, nodonlarga nasihat, maslahat berish kabi fazilatlarni barcha ezgulikning asosi ekanligini ta'kidlaydi.

XI asrning atoqli shoiri va buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojibdir. Donishmanddan bizgacha etib kelgan asari — saodatga eltuvchi bilim — «Qutadg'u bilig»dir. Asar o'sha davr adabiyoti hamda adabiy tilining nodir obidasini hisoblanadi. Unda O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy va axloqiyta'limiy qarashlari o'zining badiiy ifodasini topgan.

Mahmud Qoshg'ariy (X asr) o'z davrining mutafakkiri, fozili edi. U arab, fors tili va adabiyotinng puxta bilimdoni, turkiy xalqlar, elatlar va qabilalarnlg urf-odatlari, tilini atroflicha o'rgangan olim sifatida mashhur edi. Ayiiqsa, Mahmud Qoshg'ariy etuk elshunos (etnograf) va tilshunos ol1^m sifatida tinimsiz izlandi. Bu.to'g'rida uning o'zi quyida-gicha szgan edi:

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida ham shaxs, shaxsning kamoloti, uning jamiyatda tutgan o'rni xususidagi chuqur falsafiy-psixologik fikr-mulohazalarini o'qishimiz mumkin

Navoiy falsafaning barcha muhim nazariy va amaliy masalalarini qamrab olgan maxsus asar yozgan bo'lmasa-da, uning asarlarida ham shaxs, ham jamiyat to'g'risida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Yuqorida nomlari tilga olingan mutafakkirlarimizdan tashqari Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Ahmad YAssaviy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi allomalar ham shaxs kamoloti, shaxsning kamolotga erishuvida jamiyat va qadriyatlarning o'rni xususida o'zlarining noyob fikrlarini yozib qoldirganlar. Ajdodlarimizning ilmiy falsafiy ta'limotlari tor milliy qobiqda o'ralib qolmasdan, balki ham milliy, ham umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan ta'limotlardir

Demak, sharq mutafakkirlar falsafasida milliy xususiyatlar muammosining aks ettirilishi bugungi zamonaviy yoshlarimiz ongi va shurini millatimiz qadriyatlariiga sodiq shunningdek ajdodlar me'rosini qadrlashga, avaylab-asrashga o'rganadilar.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. K.Hoshimov, S.Nishonova, M.Inomova va boshq. Pedagogika tarixi.– Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 48 b.
2. Platonov YU.P. Etnicheskaya psixologiya.-SPb.:“Rech”,2001.-320 s
3. www.ziyonet.uz